Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

**Doimiy aholi soni.** Qashqadaryo viloyati doimiy aholisi soni 2020-yil 1-oktabr holatiga **3318,0** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **37,6** ming kishiga yoki **1,1** % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni **1426,7** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **43,0** %), qishloq aholisi soni **1891,3** ming kishini (**57,0** %) tashkil etdi.

**E'tibor bering:**
**2020-yil yanvar-sentabr**

- Aholi soni **37,6 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **65,4 ming nafarni** tashkil etdi.
- FHDYO bo'limlarida **19,4 ming ta nikoh** va **1,3 ming ta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

***Qashqadaryo viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar***
*(yanvar- sentabr, ming kishi)*

| | *2019- y.* | *2020- y.* |
|---|---|---|
| **Doimiy aholi soni,** *(1 oktabr holatiga)* | ***3261,4*** | ***3318,0*** |
| Tug'ilganlar | **62,3** | **65,4** |
| Kelganlar | **8,0** | **6,7** |
| Ketganlar | **12,9** | **23,8** |
| Migratsiya sal'dosi | **-4,9** | **-17,1** |
| Tuzilgan nikohlar, ming birlik | **18,0** | **19,4** |
| Nikohdan ajralishlar, ming birlik | **1,1** | **1,3** |
| *1000 aholiga nisbatan koeffitsiyentlar, promille* | | |
| tug'ilish | **25,7** | **26,5** |
| tuzilgan nikohlar | **7,4** | **7,9** |
| nikohdan ajralishlar | **0,5** | **0,5** |

**Hududlar kesimida doimiy aholi sonining oʻtgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi** (1-oktabr holatiga, ming kishi)

| | 2019-yil | 2020-yil | Oʻtgan yilga nisbatan oʻsish yoki kamayish surʻati, % da |
|---|---|---|---|
| **Qashqadaryo viloyati** | **3261,4** | **3318,0** | **101,7** |
| Qarshi sh. | **273,8** | **278,0** | **101,5** |
| Shahrisabz sh. | **138,6** | **140,4** | **101,3** |
| *tumanlar:* | | | |
| Gʻuzor | **202,2** | **206,5** | **102,1** |
| Dehqonobod | **145,9** | **149,0** | **102,1** |
| Qamashi | **269,3** | **273,5** | **101,6** |
| Qarshi | **245,8** | **250,9** | **102,1** |
| Koson | **282,9** | **288,8** | **102,1** |
| Kitob | **262,5** | **265,1** | **101,0** |
| Mirishkor | **118,6** | **120,9** | **101,9** |
| Muborak | **86,2** | **87,8** | **101,9** |
| Nishon | **151,4** | **154,6** | **102,1** |
| Kasbi | **194,9** | **198,7** | **101,9** |
| Chiroqchi | **406,8** | **416,7** | **102,4** |
| Shahrisabz | **220,7** | **222,4** | **100,8** |
| Yakkabogʻ | **261,8** | **264,7** | **101,1** |

Hududlar kesimida tahlillar shuni koʻrsatmoqdaki, 2020-yil 1-oktabr holatiga eng koʻp aholi soni Chiroqchi tumanida **416,7** ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi **12,5** %) va Koson tumanida **288,8** ming kishini (**8,7** %), Qarshi shahrida **278,0** ming kishini (**8,4** %), aksincha eng kam aholi soni Muborak tumanida **87,8** ming kishini (**2,6** %) va Mirishkor tumanida **120,9** ming kishini (**3,6** %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori oʻsish sur'ati 2019-yilning mos davriga nisbatan Chiroqchi tumanida **2,4** % ni, Gʻuzor, Dehqonobod, Qarshi, Koson va Nishon tumanlarida **2,1** % ni, va aksincha eng kam oʻsish sur'ati Shahrisabz tumanida **0,8** % ni, Kitob tumanida **1,0** % ni, Yakkabogʻ tumanida **1,1** % ni va Shahrisabz shahrida **1,3** % ni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi

(2020-yil 1-oktabr holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)




## Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo'linishi

(2020-yil 1-oktabr holatiga, % да)



## Doimiy aholi sonining hududlar kesimida jinslar bo‘yicha  taqsimlanishi

| | Jami | Erkaklar | Ayollar |
|---|---|---|---|
| **Qashqadaryo viloyati** | **3318,0** | **1678,5** | **1639,5** |
| Qarshi sh. | **278,0** | **139,1** | **138,9** |
| Shahrisabz sh. | **140,4** | **71,4** | **69,0** |
| tumanlar: | | | |
| G‘uzor | **206,5** | **104,1** | **102,4** |
| Dehqonobod | **149,0** | **75,2** | **73,8** |
| Qamashi | **273,5** | **138,6** | **134,9** |
| Qarshi | **250,9** | **124,6** | **126,3** |
| Koson | **288,8** | **146,3** | **142,5** |
| Kitob | **265,1** | **134,9** | **130,2** |
| Mirishkor | **120,9** | **61,7** | **59,2** |
| Muborak | **87,8** | **44,4** | **43,4** |
| Nishon | **154,6** | **77,4** | **77,2** |
| Kasbi | **198,7** | **101,5** | **97,2** |
| Chiroqchi | **416,7** | **211,9** | **204,8** |
| Shahrisabz | **222,4** | **113,2** | **109,2** |
| Yakkabog‘ | **264,7** | **134,2** | **130,5** |



**Tug'ilish.** 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida **65,4** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **26,5** promilleni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan **0,8** promillega (2019-yilning yanvar-sentabr oylarida **25,7** promille) ko'paygan .

Tug'ilish koeffitsiyenti 2019-yilning mos davriga nisbatan Qarshi shahrida (**19,7** promilledan **24,0** promillega), Shahrisabz shahrida (**21,5** promilledan **24,1** promillega) va Kitob tumanlarida (**24,2** promilledan **25,0** promillega) o'sish va aksincha Qamashi (**29,5** promilledan **28,6** promillega), Koson tumanida (**27,3** promilledan **26,3** promillega), Nishon tumanlarida (**27,3** promilledan **26,6** promillega) kamayish kuzatildi.



O'g'il bolalar: **34,1** ming nafar

Qiz bolalar: **31,3** ming nafar

**Ma'lumot uchun**

Tirik tug'ilganlik mezonlari-dan (nafas, yurak urishi, кindik pulsatsiyasi, muskul-larning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500

**Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti** (2020-yil yanvar-sentabr)



**Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni birlik,**
**o‘sish yoki kamayish sur`ati % da** (yanvar-sentabr)

| | 2019-yil | 2020-yil | O‘sish yoki kamayish sur`ati % da |
|---|---|---|---|
| **Qashqadaryo viloyati** | 62292 | 65402 | 105,0 |
| Qarshi sh. | 4019 | 4962 | 123,5 |
| Shahrisabz sh. | 2214 | 2519 | 113,8 |
| tumanlar: | | | |
| G‘uzor | 3880 | 4322 | 111,4 |
| Dehqonobod | 3015 | 3054 | 101,3 |
| Qamashi | 5896 | 5833 | 98,9 |
| Qarshi | 4370 | 4440 | 101,6 |
| Koson | 5732 | 5640 | 98,4 |
| Kitob | 4719 | 4952 | 104,9 |
| Mirishkor | 2166 | 2334 | 107,8 |
| Muborak | 1659 | 1648 | 99,3 |
| Nishon | 3060 | 3055 | 99,8 |
| Kasbi | 3754 | 3812 | 101,5 |
| Chiroqchi | 8783 | 9754 | 111,1 |
| Shahrisabz | 3649 | 3642 | 99,8 |
| Yakkabog‘ | 5376 | 5435 | 101,1 |





**Nikoh.** 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan **19,4** ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti **7,9** promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2019-yilning mos davriga nisbatan yuqori oʻsish Kitob tumanida (**139,9** %), Shahrisabz shahrida (**129,2** %), Gʻuzor tumanida (**119,3** %) ni va eng yuqori kamayish Mirishkor (**93,9** %), Dehqonobod (**93,9** %), Qarshi shahri (**93,3** %), Yakkabogʻ (**88,7** %) ni va Nishon (**85,4** %) tumanlariga toʻgʻri kelmoqda.

**Nikohdan ajralishlar.** 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan **1,3** mingta, nikohdan ajralishlar qayd etilgan boʻlib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti **0,5** promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2019-yilning mos davriga nisbatan yuqori oʻsish Muborak (**176,9** %), Koson (**161,9** %), Chiroqchi (**151,4** %), Kitob (**136,1** %), Dehqonobod (**130,8** %) va eng yuqori kamayish Qarshi (**95,1** %), Qamashi (**93,0** %), Mirishkor (**73,7** %), tumanlariga toʻgʻri kelmoqda.

**Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti**
(2020-yil yanvar-sentabr )



**Hududlar kesimida nikohdan ajralganlar soni va koeffitsiyenti**
(2020-yil yanvar-sentabr)






**Hududlar kesimida tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni birlik, o‘sish yoki kamayish sur`ati % da** (yanvar-sentabr)

| | Tuzilgan nikohlar | | | Nikohdan ajralishlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2019-yil | 2020-yil | O‘sish yoki kamayish sur`ati % da | 2019-yil | 2020-yil | O‘sish yoki kamayish sur`ati % da |
| **Qashqadaryo viloyati** | **18021** | **19398** | **107,6** | **1130** | **1338** | **118,4** |
| Qarshi sh. | **1576** | **1470** | **93,3** | **193** | **217** | **112,4** |
| Shahrisabz sh. | **643** | **831** | **129,2** | **73** | **95** | **130,1** |
| tumanlar*:* | | | | | | |
| G`uzor | **1196** | **1427** | **119,3** | **66** | **71** | **107,6** |
| Dehqonobod | **799** | **750** | **93,9** | **39** | **51** | **130,8** |
| Qamashi | **1501** | **1693** | **112,8** | **86** | **80** | **93,0** |
| Qarshi | **1448** | **1676** | **115,7** | **103** | **98** | **95,1** |
| Koson | **1782** | **1961** | **110,0** | **63** | **102** | **161,9** |
| Kitob | **1183** | **1655** | **139,9** | **108** | **147** | **136,1** |
| Mirishkor | **743** | **698** | **93,9** | **38** | **28** | **73,7** |
| Muborak | **577** | **584** | **101,2** | **26** | **46** | **176,9** |
| Nishon | **916** | **782** | **85,4** | **50** | **56** | **112,0** |
| Kasbi | **1209** | **1248** | **103,2** | **55** | **64** | **116,4** |
| Chiroqchi | **2081** | **2264** | **108,8** | **70** | **106** | **151,4** |
| Shahrisabz | **922** | **1078** | **116,9** | **77** | **92** | **119,5** |
| Yakkabog` | **1445** | **1281** | **88,7** | **83** | **85** | **102,4** |





**Migratsiya.** 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni **6,7** ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa **23,8** ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus **17,1** ming kishi bo'lib, 2019-yilning mos davrida minus **4,9** ming kishi bo'lgan.






Migratsiya saldosining yuqori darajasi Yakkabog' tumanida (minus **3,1** ming kishi), Kitob tumanida (minus **2,9** ming kishi), Shahrisabz tumanida (minus **2,6** ming kishi), Chiroqchi tumanida (minus **2,4** ming kishi) qayd etildi.

**Aholi migratsiyasi** (ming kishi yanvar-sentabr)

| | **2019-yil** | **2020-yil** |
|---|---|---|
| **Ko'chib kelganlar** | 8,0 | 6,7 |
| **Ko'chib ketganlar** | 12,9 | 23,8 |
| **Migratsiya saldosi** | -4,9 | -17,1 |

## Hududlar kesimida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni va migratsiya saldosi, kishi (yanvar-sentabr)

| | Ko'chib kelganlar | | Ko'chib ketganlar | | Migratsiya saldosi | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2019-yil | 2020-yil | 2019-yil | 2020-yil | 2019-yil | 2020-yil |
| **Qashqadaryo viloyati:** | 7984 | 6715 | 12911 | 23813 | -4927 | -17098 |
| Qarshi sh. | 1884 | 1467 | 1910 | 2277 | -26 | -810 |
| Shahrisabz sh. | 271 | 224 | 562 | 1017 | -291 | -793 |
| tumanlar: | | | | | | |
| G'uzor | 358 | 204 | 582 | 760 | -224 | -556 |
| Dehqonobod | 233 | 142 | 672 | 646 | -439 | -504 |
| Qamashi | 304 | 256 | 1082 | 2419 | -778 | -2163 |
| Qarshi | 1252 | 1277 | 915 | 1169 | 337 | 108 |
| Koson | 369 | 343 | 750 | 759 | -381 | -416 |
| Kitob | 383 | 366 | 1093 | 3242 | -710 | -2876 |
| Mirishkor | 251 | 181 | 343 | 337 | -92 | -156 |
| Muborak | 311 | 170 | 398 | 349 | -87 | -179 |
| Nishon | 765 | 583 | 677 | 911 | 88 | -328 |
| Kasbi | 409 | 250 | 555 | 589 | -146 | -339 |
| Chiroqchi | 197 | 173 | 1080 | 2537 | -883 | -2364 |
| Shahrisabz | 478 | 590 | 1141 | 3236 | -663 | -2646 |
| Yakkabog' | 519 | 489 | 1151 | 3565 | -632 | -3076 |

## Aholi migratsiyasi ko‘chib kelganlar va ko’chib ketganlar
(yanvar-sentabr)







**Viloyat statistika boshqarmasi Demografiya va mehnat statistikasi bo`limi**
*(75) 220-04-10  (75) 221-15-84*